



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш босқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

MAMLAKATIMIZDA KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЛИКВИДНОСТИ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ В СТРАНЕ

WAYS TO INCREASE THE LIQUIDITY OF THE SECURITIES MARKET IN OUR COUNTRY

Xamzaev Azizbek Nematovich
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini likvidligini oshirish, investitsiya faoliyatini takomillashtirish yo‘llari, shuningdek, uning afzalliklari tahlili va rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida co‘z boradi.

Shuningdek maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: aksiya, investitsiya, qimmatli qog‘oz, korporativ qimmatli qog‘oz, davlat qimmatli qog‘ozlari, obligatsiya, emitent

В этой статье будут обсуждаться вопросы, связанные с привлечением инвестиций, инвестиций в развитие юлари, шунингдек, юнгингдек, объединяющий анализ и развитие.

Также в статье представлены существующие проблемы в перспективах развития инвестиционной деятельности акционерных обществ на фондовом рынке, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: акции, инвестиции, ценные бумаги, корпоративная ценные бумаги, государственная ценные бумаги, облигация, эмитент

This article talks about methods to improve the investment activity of joint stock companies in the capital market of our country, as well as the analysis of its advantages and improvement of development prospects.

Also, the article presents the extant problems in the prospects of development of investment activities of commercial banks in the securities market, as well as the author's approaches and proposals for their elimination.

Keywords: Commercial bank, investment, securities, corporate securities, government securities, shares, issuer

Kapital bozorining milliy iqtisodiyotda muhim o‘ringa ega ekanligi shubhasizdir. Ushbu bozorning har bir elementi davlat iqtisodiy barqarorligi, o‘sishi va rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir. Shunday muhim elementlardan biri sifatida fond birjani iqtisodiyotdagi o‘rniga to‘g‘ri baho berish, faoliyatini tartibga solish va rivojlanishi uchun sharoit yaratish, aholi o‘rtasida bozor munosabatlari rivojlanishi va mulkning aholi o‘rtasida mobilligiga olib keladi va o‘z navbatida iqtisodiy o‘sishga katta hissa qo‘shadi. Ushbu maqolada kapital bozorining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini yoritishga, uning o‘ziga xos xususiyatlari va iqtisodiyotga ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan.

Fond birjalari qimmatli qog‘ozlar, shu jumladan ochiq kompaniyalar aksiyalarini, obligatsiyalarni va boshqa moliyaviy vositalarni sotib olish va sotishni ta‘minlovchi muhim platforma bo‘lib xizmat qiladi. Birjalar orqali olib boriladigan savdolar oddiy bozor munosabatlari bo‘libgina qolmay, iqtisodiyotda resurslar harakatchanligini ta‘minlaydi, kapital shakllanishini rag‘batlantiradi,

boylik yaratishga yordam beradi va mamlakatning iqtisodiy baraqarorligini aks ettiradi[1] deb, belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari muhim moliyaviy institut sifatida bo‘sh pul mablag‘larini ma‘lum shartlar asosida jalb qilish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish, sub‘ektlar o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish, aholi daromadlarini ko‘paytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, cheklangan resurslar va cheklangan vaqt sharoitida ulardan eng samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash, barcha imkoniyatlarni o‘z vaqtida va to‘liq ishga solish zaruriyatini oshiradi hamda ilmiy asosda tadqiq qilish zarurligini yuzaga keltiradi.

Ta‘kidlash lozimki, bugungi kunga qadar aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya faoliyati bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishning ayrim nazariy-konseptual jihatlarini ishlab chiqishda mahalliy va xorijlik olimlartomonidan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan hamda nazariyalar ilgari surilgan.

Jumladan, prof. H.Markovisning nazariyasiga ko‘ra, yo‘l qo‘yiladigan xatoliklardan biri shundaki, investor har doim daromadlilikning maqbul darajasi sharoitida kam riskni ta‘minlaydigan yoki riskning maqbul darajasi sharoitida yuqori daromadni ta‘minlaydigan portfelni ta‘minlaydi. Ushbu xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun investor shunday portfelni tanlashi kerakki, bunda kutilayotgan daromad risk oshmasdan turib oshishi mumkin emas yoki aksincha, risk kutilayotgan daromad kamaymasdan turib kamaymasligi kerak [2]. Yana bir guruh olimlar prof. Yu.Morozkin va dos. Ye.Svistunovalarning fikriga ko‘ra, fond bozori kon‘yunkturasini dinamik o‘zgarishi sharoitida optimal qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirish har doim ham yetarli bo‘lavermaydi. Bunday sharoitda tijorat bankiga qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirishning takomillashgan strategiyasini shakllantirish zarur bo‘ladi. Boshqaruv fond bozoridagi holatlar to‘g‘risida xulosalar shakllantirish imkonini beradigan u yoki bu omillarni monitoring qilish asosida qimmatli qog‘ozlar portfeliga tuzatish kiritish imkonini beradi. Bu esa, investitsiyalash strategiyasi va portfelning tarkibi bo‘yicha zamonaviy va aniq qarorlarni qabul qilish uchun imkoniyat yaratadi [3]. Shuningdek, dos. M.Chekulaevning fikriga ko‘ra, jalb qilingan mablag‘larning qiymati, ya‘ni ularga to‘lanadigan foizlarning stavkalari “koll” opsiyalarining premiyasi miqdoriga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ammo, bunda ushbu omilning ta‘sirini cheklanganligini hisobga olish zarur, ya‘ni portfelda opsiyalar pozitsiyasining uncha katta bo‘lmagan ulushi ham foiz stavkalari darajasini o‘zgartira oladi [4]. Prof. Ye.Jukovning xulosasiga ko‘ra, texnik tahlilni amalga oshirishda shunga e‘tibor qaratish kerakki, baholar dinamikasiga tashqi omillar ta‘sir ko‘rsatadi va birja kursiniig tebranishi ma‘lum qonuniyatlarga bo‘ysungan bo‘lib, ular barqaror mazmunga ega bo‘lishii lozim. Aniqlangan qonuniyatlar asosida birja kursining kelgusidagi tebranishi, boshqa omillarni ta‘siri hisobga olingan holda, prognoz qilinadi [5].

Jahon amaliyotida aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya faoliyati o‘z aktivlarini diversifikatsiya qilish maqsadadi qimmatli qog‘ozlarga investitsiya kiritish, qo‘shimcha daromad olish va bank likvidligini saqlashdan iborat bo‘lmoqda [6].

Qimmatli qog‘ozlar bozori mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy institutlardan biridir. Mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng zamonaviy bozor munosabatlarini rivojlantirishni maqsad qilgan O‘zbekistonda fond bozorini shakllantirish ehtiyoji yuzaga kelib, hozirgi kunda u o‘z ishtirokchilariga va rivojlangan infratuzilmaga ega bo‘lgan barqaror faoliyat yurituvchi institutga aylandi [7].

Nomlari yuqorida zikr etilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida inflyatsiya va devalvatsiya darajasi nisbatan yuqori bo‘lgan sharoitda tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari tadqiq qilinmagan.

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, gruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya uslublaridan foydalanildi. Xususan, qiyosiy taqqoslash usulida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini rivojlantirish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalardan oladigan daromadlari dividendlar va foizlar shaklida bo‘lib, ular banklarning

moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tijorat banklarining ulushli tarzda ishtiroki investitsiyalari dividend ko'rinishida daromad olinishini ta'minlasa, ularning obligatsiyalar, imtiyozli aksiyalar, depozit va jamg'arma sertifikatlariga qilingan investitsiyalari foiz ko'rinishida daromad olishlarini ta'minlaydi. Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya faoliyati bank o'z mablag'lari, jalb qilingan va qarz olingan mablag'larni to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga yoki portfel investitsiyalarga yo'naltirish shaklida olib boradi. Mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib, investitsiya uchun mablag' jamg'arish; investitsion kreditlar ajratish; qimmatli qog'ozlarga, ulushlariga investitsiyalar kiritish hisoblanadi. Tijorat banklarning investitsiya faoliyati bu – iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishi tizimining kapital bozorida vositachilik operatsiyalaridir.

O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida quyidagi turdagi ishtirokchilar ishtirok etishadi:

1. Investorlar: Bular investitsiyalaridan daromad olish maqsadida fond bozorida qimmatli qog'ozlarni sotib oladigan va sotadigan jismoniy shaxslar, muassasalar yoki tashkilotlardir. Investorlar chakana investorlar (jismoniy shaxslar), institutsional investorlar (pensiya fondlari, investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari) bo'lishi mumkin.

2. Treyderlar: Treyderlar - bu qisqa muddatli narxlarning o'zgarishidan foydalanish uchun fond bozorida qimmatli qog'ozlarni faol ravishda sotib oladigan va sotadigan jismoniy shaxslar yoki firmalar. Ular ko'pincha bozor tebranishlaridan foyda olish uchun turli savdo strategiyalari va usullaridan foydalanadilar. Treyderlar jismoniy shaxslar sifatida faoliyat yuritishi yoki brokerlik firmalari yoki moliya institutlarida ishlashi mumkin

3. Birja brokerlari: Birja brokerlari - bu investorlar nomidan qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishni osonlashtiradigan litsenziyalangan mutaxassislar yoki firmalar. Ular savdolarni amalga oshiradilar va investorlarga maslahat va yordam beradilar. Birja brokerlari bir qator moliyaviy xizmatlarni taklif qiluvchi to'liq xizmat ko'rsatadigan brokerlar yoki birinchi navbatda savdolarni amalga oshirishga qaratilgan chegirmali brokerlar bo'lishi mumkin.

4. Market-meykerlar: Market-meykerlar - bu qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish narxini ko'rsatish orqali fond bozoriga likvidlikni ta'minlaydigan ixtisoslashgan shaxslar yoki firmalar. Ular istalgan vaqtda sotib olish yoki sotishga tayyor bo'lish orqali qimmatli qog'ozlarga doimiy talab va taklif mavjudligini ta'minlaydi. Market-meykerlar odatda sotib olish va sotish narxlari o'rtasidagi farqdan foyda ko'radilar

5. Depozitariylar: Depozitariylar fond bozoridagi savdolar bo'yicha hisob-kitoblarni osonlashtiradigan sub'ektlardir. Ular xaridorlar va sotuvchilar o'rtasida vositachi bo'lib, qimmatli qog'ozlar va pul mablag'larining to'g'ri va samarali almashinuvini ta'minlaydilar. Hisob-kitob markazlari, shuningdek, savdo faoliyati bilan bog'liq risklarni boshqaradi va savdoni tasdiqlash, hisob-kitoblar va hisob-kitoblar kabi xizmatlarni taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasiga chet eldan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning sof hajmi 2,0 mlrd. dollarni tashkil qildi (1,7 mlrd. dollar 2020 yilda). Portfel investitsiyalari bo'yicha sof majburiyatlar 2,0 mlrd. dollarga o'sib davlat (895,3 mln. dollar) hamda boshqa sektorlar (1,1 mlrd. dollar) tomonidan xalqaro bozorlarda qarz instrumentlarini yevrobondlarni) joylashtirish bilan izohlanadi.


Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan aksiyalar emissiya qilish bilan bir qatorda korporativ obligatsiyalarni ham emissiya qilinishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Korporativ obligatsiyalar - aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar tomonidan chiqariladigan obligatsiyalardir.

Korporativ obligatsiyalar ochiq yoki yopiq obuna orqali chiqarilishi mumkin. Ularning asosiy farqi shundaki, ochiq obuna bo'lgan taqdirda, qimmatli qog'ozlarni joylashtirish cheksiz ko'p investorlar o'rtasida, yopiq obuna bilan esa oldindan ma'lum bo'lgan cheklangan investorlar orasida amalga oshiriladi.

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki “Toshkent” RFB ning 2016-2022 yillar davomidagi savdo aylanmasi bir tekis o'sish tendensiyasiga ega emas, chunki fond bozori 2017 va 2019 yillarda avvalgi yillarga nisbatan pasayish tendensiyasiga ega. Buning asosiy sabablaridan biri listing kompaniyalari faoliyatiga bog'liq bo'lib, 2022 yilda keskin oshib ketishi mazkur davrda yirik

davlat ulishi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining ko‘p miqdordagi aksiyalarning sotuvga qo‘yilishi hisoblanadi.



1-rasm. Toshkent RFB ning 2016-2022 yillardagi savdo hajmi dinamikasi [1]

Bizga ma’lumki ko‘pgina sabablarga ko‘ra tadbirkorlar kamdan-kam hollarda korporativ obligatsiyalarni qarz hisobidan moliyalashtirishning raqobatdosh usuli deb bilishadi. Shu bilan birga, korporativ obligatsiyalarni chiqarishda qarz oluvchi kompaniyaning o‘zi foiz stavkasini va emissiya muddatini belgilaydi. Bu kompaniyaga ko‘proq imkoniyatlar beradi, qarzni yanada moslashuvchan qiladi.

Korporativ obligatsiyalar ochiq yoki yopiq obuna orqali chiqarilishi mumkin. Ularning asosiy farqi shundaki, ochiq obuna bo‘lgan taqdirda, qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish cheksiz ko‘p investorlar o‘rtasida, yopiq obuna bilan esa - oldindan ma’lum bo‘lgan cheklangan investorlar orasida bo‘ladi.

Shunday qilib, qarz oluvchi kompaniya o‘z maqsadlaridan kelib chiqib, potensial investorlarni oldindan tanlashi mumkin. Yopiq obunani tanlash obligatsiyalar emitentini ommaviy e’lon va reklama kampaniyasidan xalos qilishi va shu bilan xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Ochiq va yopiq obunalar uchun korporativ obligatsiyalarni chiqarish jarayoni farq qiladi. Obligatsiyalarni ochiq obuna orqali chiqarish uchun qarz oluvchiga auditorlik tekshiruvdan o‘tgan moliyaviy hisobot va reyting ballari kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, kompaniya so‘ngi moliyaviy yilda rentabellik, to‘lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik va likvidlikning ijobiy ko‘rsatkichlarini namoyish etgan bo‘lishi kerak.

Mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aksiyalarini likvidligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tildi. Jahon xo‘jaligining barqarorligiga erishishga hamda moliya bozori sohasidagi munosabatlarning uzluksizligini ta’minlashga yordam beradi.

Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida mamlakatimiz iqtisodiyotida mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini takomillashtirish tizimini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etayotganini hisobga olgan holda, quyidagi taklif va tavsiyalar shakllantirildi:

1. Aholining fond bozori to‘g‘risida moliyaviy savodxonligini oshirishni ta’minlash. Muxim ichki omillar – bu hozircha ommaviy investor fond bozoriga chiqishi uchun yetarli bo‘lmagan investitsiya salohiyati va daromadlari, demak aholini bo‘sh pul mablag‘larini jalb etishni keskin oshirish choralarini ko‘rish kerak.

2. O‘zbekistonning qimmatli qog‘ozlar bozoriga xorijiy investorlar (xorijiy investitsiya kompaniyalari va fondlari) tomonidan qiziqish bormi degan masalaga keladigan bo‘lsak ularni respublika kapital bozoriga jalb qilishda qanday muammolar mavjud degan masalani hal qilish maqsadga muvofiq.

3. Anderrayterlarga aksiyadorlik jamiyati bilan tuzilgan shartnoma asosida aksiyalar taqsimlanadigan investorlarni tanlash, shuningdek, investorlarga IPO va SPO doirasida xarid qilingan aksiyalarni sotish taqiqlanadigan muddatni belgilash huquqini zarur.

4. Fond birjasi faoliyat mexanizmini jahon standartlari darajasiga ko‘tarish, qimmatli qog‘ozlar listingi va katirovkasi talablarini yengillashtirish, fond bozori infratuzilmasining eng asosiylari: birjalar, depozitariylar, investitsiya vositachilari va hisob-kitob kliring tashkilotlarining avtomatlashtirilgan aloqa tizimlarini yaratish orali samarali infratuzilmani shakllantirishga imkoniyat yaratadi va moliya bozori o‘rning yanada oshishiga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF – 60 sonli Farmoni.
2. Markowitz, H. Portfolio Selection/ The Journal of Finance, 1952 – №7. – R. 77- 91.
3. Морозкин Ю.Н, Свистунова Е.С. Управление портфелем сенных бумаг в коммерческом банке//Вестник Челябинского государственного университета. – Челябинск, 2011. – №6. – С. 138.
4. Чекулаев М. Загадки и тайны опционной торговли. М.: ИК Аналитика, 2001. – С. 10.
5. Жуков Е. Ф. Рынок сенных бумаг: учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА. — 567 с.,
6. Леонтев В.Э, Бочаров В.В, Радковская Н.П. Инвестиции — М.: Юрайт, 2014, 127-131 с
7. Haydarov O‘.A. “O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishda fond bozorlarining ta’siri”. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2015 yil.
8. <https://sqb.uz/uz/for-investors/reports-and-presentations-uz/>